

**XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA QO‘LLANILGAN
NOADABIY QATLAMLAR**

Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

+998-99 074-73-56

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar va kattalar adabiyotining o‘xshash va farqli jihatlariga to‘xtalgan. X.To‘xtaboyev asarlari misolida bolalar adabiyotini kattalar adabiyotidan farqli jihatlari misollar asosida ochib berilgan. X.To‘xtaboyevning asarlarida qo‘llanilgan iboralar tahlil qilinib asardagi o‘rnini tushintirilib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, sheva, ko‘chma ma‘no, noadabiy qatlam, jargon

Аннотация: В данной статье рассматриваются схожие и разные стороны детской и взрослой литературы. На примере произведений X. Тохтабоева на примерах раскрываются различия между детской литературой и взрослой литературой. Проанализированы выражения, использованные в произведениях X. Тохтабаева, и объяснено их место в произведении.

Ключевые слова: фразеологизм, диалект, переносное значение, нелитературный пласт, сленг.

Abstract: This article focuses on the similar and different aspects of children’s and adult literature. On the example of the works of H. Tokhtaboyev, the differences between children’s literature and adult literature are revealed on the basis of examples. The expressions used in the works of H. Tokhtabayev were analyzed and their place in the work was explained.

Key words: phraseologism, dialect, figurative meaning, non-literary layer, slang.

Kirish

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida qo‘llanilgan noadabiy qatlamlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

adabiyotshunoslikda matndagi oddiy, xalqona yoki kundalik hayot tilidan olingan elementlar sifatida talqin qilinadi. Ushbu qatlama asarlarni o‘quvchilarga yaqinlashtiradi, jonli va tabiiy tus beradi. To‘xtaboyevning asarlarida bunday qatlamlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1 2. Milliy koloritni berish

Xalqona iboralar, maqollar va sheva unsurlari milliy madaniyatni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. To‘xtaboyevning asarlarida bu jihat bolalar va yosh o‘quvchilarning milliy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Qahramon xarakterini ochib berish

Noadabiy til qatlamlari qahramonlarning ijtimoiy maqomi, yoshi, fe’l-atvori va madaniyatini ochishga xizmat qiladi. Masalan, bolalarning sho‘xliklarida yoki kattalarning jerkishlarida qo‘llanilgan xalqona iboralar ular xarakterini yanada yorqinroq namoyon qiladi.

4. Badiiy uslubni boyitish

Noadabiy qatlamlar asarning uslubiy jihatdan boy bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Oddiy va xalqona til shevalar, metaforalar va kinoyalar bilan uyg‘unlashib, matnga o‘ziga xos rang-baranglik bag‘ishlaydi.

5. O‘quvchi bilan bog‘lanish

Kundalik hayotda ishlatiladigan so‘zlar va iboralar o‘quvchilar uchun matnni tushunish va qabul qilishni osonlashtiradi. Ayniqsa, yosh o‘quvchilarda bu elementlar asarga nisbatan qiziqish va iliqlik hissi uyg‘otadi.

6. Kulgili va o‘qish qiziqrli bo‘lishini ta’minalash

Noadabiy qatlamlar, ayniqsa, ironik iboralar va jerkishlar yordamida asarning qiziqrli va kulgili bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan, To‘xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo‘llanilgan xalqona so‘zlar va kulgili holatlar asarni yanada zavqli qiladi.

7. Matnning estetik va hissiy ta’sirini oshirish

Noadabiy qatlamlar asarning hissiy ta’sirchanligini kuchaytiradi. Qahramonlarning hissiyotlari, o‘ylari va muomalasi samimiyroq tuyuladi. Bu esa

o‘quvchining matnga ko‘ngil qo‘yishiga yordam beradi.

Jargon (fransuzcha: jargon *safsata*) — biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum so‘zlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shular manfaatiga xizmat qiladi (*talabalar, harbiy xizmatchilar, turli kasb, mashg‘ulot egalari orasidagi jargonlar*). Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik lozim. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tezda o‘zgaruvchan, barqaror bo‘lmaydi.

Asosiy qism

Xudojberdi To‘xtaboyev asarlarida ham jargon so‘zlardan foydalanganiga guvoh bo‘ldik.

Asarda mavjud **noadabiy qatlam (jargon)** so‘zlardan misollar:

1. Senga hali aytdim-ku, shu bola ko‘nglimga sal ma’qul tushib qoldi deb... So‘roq boshlash oldidan avval odamning psixologiyasini o‘rganish kerak. **Bufetchi** (chakana savdo xodimi) bo‘lsa, tajribali, uni aldab bo‘lmaydi. (63-bet)

2. Salimjon akamning eski, shalog‘i chiqqan, uzoqdan qarasangiz, o‘rmalab ketayotgan qo‘ng‘izga o‘xshab ko‘rinadigan “Moskvich”i bor ekan. **Raysobes** (*tuman miqyosidagi yuqori lavozim*) ning shofyori ikkovimiz uch kun o‘ynab, uni oyoqqa turg‘azdik. (70-bet)

3. Yo‘lga chiqdik. Men rulda, polkovnik oldingi o‘rindiqda, chugtirchiqlardan yettitasini orqa o‘ringa o‘tqazib, bitta sal kattarog‘ini **bagajnik** (yukxon)ka yotqizdig; bagajnikda u o‘tgan yili ikki marta lola sayliga ham borib kelgan ekan. Yo‘lga chiqishimiz bilan men negadir juda, juda ham xursand bo‘lib ketdim. Butun shahar **militcioner** (Ichki ishlar xodimlari) lari ustoz deb hurmat qiladigan e’tiborli bir odam bilan mana shunday yonma-yon o‘tirib, ... (72-bet)

4. Mashina yo‘lning qoq o‘rtasida pat-pat qilib tutun chiqardi-yu, taqqa to‘xtab qoldi. **Startyor** (avtomobil qurilmasi)ni shuncha bossam ham o‘t olmadi. Benzin qolmayaptimikan deb, karbyurator qaragan edim - hammasi joyida. Ehtimol, tok uzilgandir, deb **babina** (avtomobil qurilmasi)ni paypasladim - tok ham bor. (72-bet)

5. **Akkumulyator** (avtomobil qurilmasi) kuchsizlanibdi, itarish kerak, - deb

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

taklif qildim. Maslahatim, polkovnikka ham ma'qul bo'ldi. Bolalar tushib, xuddi shirali bir narsaga yopishgan pashshadek har tomondan mashinaga yopirilishib, uni choptirib ketishdi. Besh metr, o'n metr... Mana, ikki yuz metrcha yurib qo'ydik hamki, qani endi **zormanda** (ko'p yalintiruvchi ma'nosida) o't olsa! (72-bet)

6. Mehnatkashlar tomonidan yuqori idoralarga yozilgan yigirma bir shikoyatning asl nusxasi so'rab olindi, oshxonadagi qalloblikni qayd qiluvchi shahar savdo inspeksiyasi, militsiya va xalq **kontroli** (nazorat)dan olingan dalolatnomalar, bir oshpaz, baqaloq bufetchining tilxat va yana men bexabar bo'lgan qanchadan qancha **akt** (dalolatnoma)lar-u faktlar jamuljam qilinib, (74-bet)

7. Birinchidan, militsiya bo'limi qattiq turib himoya qilayotgan serjant Ro'ziyev aslida ruhiy kasal, yaqinda besh sutka jinnixonada yotib chiqdi (**spravka** (ma'lumotnoma) ga qaralsin). (74-bet)

8. "O'rtoq Ro'ziyevga tuhmat qilgan edim, direktor yomon odam, tuhmatni o'sha uyuştirdi..." - deb yozib berasan, bo'lmasa, otib tashlayman, deb do'q urgan (bufetchi Zokirovning **rayispolkom** (tuman hokimi) raisi muovini nomiga yozgan shikoyatini ilova qilamiz). (75-bet)

9. Bog'ot ko'chasidagi qirqinchi uyda direktoming yuz qop o'g'irlangan uni bor.

- Shuncha uni nima qiladi u?
- Kechasi **perashka** (ovqat turi) pishirtirib, vokzalga chiqarib sottiradi. (78-bet)

10. Drujinachi yigit-qizlardan, keksa **pensionerlardan** ko'proq olishdi-yu, negadir, meni hech qaysi guruhga qo'shishmadi. - Men-chi? Men kim bilan boraman? - so'radim boshlig'imdan.

- Sen shu yerda **shtab** (nazoratxona) boshligl bo'lib qolasan, - dedi Salimjon akam. (79-bet)

Xulosa

Asarda mavjud **noadabiy qatlam (jargon)** so'zlardan misollar: *Bufetchi, Startyor, karbyuratomi, babina* kabi jargonlarni asarda uchratishimiz mumkin.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida iboralar, maqol va mataldan, ko‘chma ma’nodagi so‘zlardan unumli foydalanilgan. Bu, albatta, asarni yanada tushunarli, qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi yozuvchilar asarlarida noadabiy qatlamlarni mahorat bilan qo‘llab, ularning ta’sirchanligini va jonliligin oshiradi. Ushbu qatlamlar asarning estetik qadrini oshiradi, milliylikni ifodalaydi va o‘quvchilarni hayajonli voqealar girdobiga olib kiradi. Shu sababli noadabiy qatlamlar badiiy asarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlarida qo‘llangan noadabiy qatlamlar bolalar va o‘smlar dunyoqarashiga mos ravishda ishlatilgan bo‘lib, ular matnning samimiyligi, qiziqarli va jonli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu qatlamlar asarning o‘quvchilar ongiga ta’sirini kuchaytiradi va uning milliyligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi. «Yangi asr avlodi», 2017-y.
2. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Besh bolali yigitcha” -«Yangi asr avlodi», 2009.